

Shokirjon Otabekov

Namangan davlat universiteti
“San’atshunoslik” kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: shokirjonotabekov94@gmail.com

O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATIDA DOIRA IJROCHILIGINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek milliy cholg‘u sozlari tarkibiga kiruvchi doiraning tarixi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar, doira ijrochiligining o‘ziga xosligi, milliy madaniyat va san’at rivojida doira ijrochiligining o‘rni atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, doira, doira usullari, shashmaqom, membrana (teri), “Zarbul-qadim”, ekstaz (jazavaga tushish), zardushtiylik, zarb, ritm.

THE SIGNIFICANCE OF DOIRA PERFORMANCE IN UZBEK NATIONAL MUSICAL ART

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of scholarly and theoretical perspectives on the history of the doira as one of the traditional Uzbek national musical instruments. It examines the distinctive features of doira performance and its role in the development of national culture and musical art.

Keywords: culture, doira, doira rhythmic patterns, Shashmaqom, membrane (skin), “Zarbul-qadim,” ecstasy (trance state), Zoroastrianism, percussion, rhythm.

O‘zbekistonda barcha sohalar qatorida madaniyat va san’at zamonaviy talablar asosida takomillashib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarini

qabul qilinishi bilan madaniyat tizimi, xususan, cholg'u ijrochiligida rivojlanishning yangi bosqichi boshlandi.

Yangi O'zbekistonda hayotga tatbiq etilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimizning boy ilmiy va madaniy merosi, shuningdek, mamlakatimizda ilm-fan, san'at hamda madaniyat sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar yoshlar ongida yot va zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy barqarorlikni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu borada milliy qadriyatlarimizni asrash, tarixiy an'analarni avaylab kelajak avlodga yetkazish hamda ularni keng ommaga targ'ib qilishda musiqa ta'limi va san'atining tutgan o'rni beqiyosdir.

Milliy musiqa san'atimizning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – doira cholg'usi ijrochiligidir. Ushbu ijrochilik san'ati chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, bugungi kunda san'at ta'limi va ustoz-shogird an'analari asosida faol rivojlanmoqda.

Cholg'u ijrochiligida doira san'ati o'ziga xos yetakchi o'rin tutadi. Bu cholg'u barcha cholg'ular ichida uzoq tarixga egaligi va ijrochilik san'ati bilan ajralib turadi. Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrlaridan boshlab qadimgi odam qadamlarining bir maromda yerga tashlanishi, ov yoki boshqa jamoa tadbirlaridagi takroriy harakatlar, qo'llarini-qo'llariga, badaniga urishdan paydo bo'luvchi sadolar, turli mehnat qurollari, buyumlar yoki toshlarning bir-biriga tegishidan kelib chiqadigan ritmik tovushlar – urma cholg'ularning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, ritm, usul ibtidoiy inson hayotining markaziy unsuri bo'lib, u jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, uni borliq-tabiat va koinot bilan uyg'unlashtiruvchi yagona vosita bo'lgan [1, 13-b].

Doira ijrochiligi sohasidagi tadqiqotlarni alohida e'tirof etish lozim. Usta Olim Komilov ijrosidagi xalq doira usullarining aksariyati Ilyos Akbarov tomonidan 1952-yilda nashr etilgan "Doira usullari" nomli asarda qayd etilgan bo'lib, shuningdek, bu usullar V.Uspenskiy va Ye.Romanovskaya kabi olimlar tomonidan ham yozib olingan. Usta Olim Komilovning ijro uslubi, ayniqsa, zarblarning jozibadorligi va tembr vositalarining rang-barangligi bilan ajralib turadi. U.T.Inog'omov, K.Azimov, A.To'ychiyev kabi ko'plab mahoratli doirachilarga

ustozlik qilgan. Doira ijrochilik san'ati tarixini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har bir davrda bu sohada fidokor san'atkorlar faoliyat yuritgan. Ular ilmiy, nazariy, amaliy va ijtimoiy jihatdan bu san'at turining rivojiga munosib hissa qo'shganlar.

Xususan, respublikamizda doira ritmik usullarini dunyo miqyosida tanitishda Usta Olim Komilov (1875–1953) muhim rol o'ynagan. Uning boy ijodiy merosi hozirgi kunda ham yosh avlod uchun katta bir maktab, amaliy qo'llanma vazifasini bajarmoqda. Mashhur ustaning an'analarini davom ettirganlar:

“To'ychi Inog'omov (1914–1986), G'ofur Azimov (1917–1981), Dadaxo'ja Sottixo'jayev (1921–1991), Qahramon Dadayev (1936–2013), Odil Kamolxo'jayev (1944–2015) kabi ustozlardir. Zamondoshlarimiz Tal'at Sayfutdinov, Rustam Ubaydullayev, Komiljon Hakimov, aka-uka Dilmurod, Elmurod, Xolmurod Islomovlar, Husan Nosirov, Xasan Azimov, Ilhom Ikromov kabilarning doira ijrosi rivojidagi mehnatlarini e'tirof etish lozim. O'nlab doirachilar mustaqil O'zbekistonning barcha viloyat va tumanlarida, butun O'rta Osiyoda doirachilik san'atini rivojlantirish hamda bu noyob soz turini dunyoga targ'ib va tashviq qilish ishida munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar” [2, 75-b].

Bunday natijalarga erishishda Toshkent davlat konservatoriyasi (hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasi) faoliyati ham serunum bo'lganligini eslatish joiz. Doira ijrochilik san'atining rivojlanish jarayonida yosh avlodga nazariy va amaliy bilim berish maqsadida 1948-yilda Toshkent davlat konservatoriyasining “Xalq cholg'ulari” fakultetida doira va urma zarbli cholg'ular sinfi tashkil topdi. Ushbu dargohda iste'dodli talabalar doira ijrochiligi tarixini, nazariy bilimlarini mukammal egallab, amaliy o'zlashtirishga ijodiy yondoshgan holda bilim olishga kirishdilar hamda yillar davomida mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha yuzlab mutaxassislar tarbiyalandi.

Bugungi kunda doira cholg'usi ijrosi bilan erkaklar bilan teng ravishda ayollar ham shug'illanib kelmoqdalar. Ijrochilik amaliyotida mohirlik darajasiga erishgan xalq doirachi sozandalari doimo xalqimiz e'zozida bo'lib kelganlar.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, musiqa cholg'ulari orasida dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Sababi, eng qadimgi mehnat qo'shiqlari, ovga chiqishlar usul (ritm) tuzilish jihatdan bevosita bir-biriga bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli musiqa cholg'ulari paydo bo'ldi. "O'zbek xalq cholg'ularida ijro etish san'ati o'z taraqqiyotining ko'p asrlik an'alarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. 1933-yildagi Ayratom Shaxristoni arxeologik qazishmalarida topilgan madaniy boyliklar, qadimiy adabiy manbalar, turli musiqa cholg'ulari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi" [3, 58-b].

Doira milliy cholg'ularimiz orasida eng qadimiy va noyob turlaridan biri bo'lib, asrlar davomida xalqimizning kundalik hayoti va mehnat faoliyati bilan chuqur singib, insonlarning madaniy hayotida muhim o'rin egallagan. Doira cholg'usining ijro imkoniyatlari va turli ijro uslublarining boyligi tinglovchining diqqatini tortadi.

Asrlar davomida o'zining noyobligini saqlab kelayotgan bebaho musiqiy merosimiz "Shashmaqom"ning asosiy tarkibiy qismlaridan biri ham doira uslublaridir. Maqom yo'llaridagi cholg'u va ashula bo'limlarining xarakterli tomonlarini ifodalashda doira uslublari muhim rol o'ynaydi. Maqomlarning tarkibida mavjud bo'lgan ko'plab kuy va ashulalar o'zgarishlar va variantlar bilan ijro etiladi, bunda doira uslublari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu cholg'u o'zbek xalqining eng sevimli cholg'ularidan biri hisoblanadi, shuningdek tojik va uyg'ur xalqlarida ham keng tarqalgan.

"Doirada ijrosidagi usullar tizimi qadimdan shakllangan bo'lib, ustozlar tomonidan "bum", "bak", "bakko" yoki "bakka", Xorazmda "gup", "taq", "taqqa" atamalari bilan yuritilgan. Bunda "bum" nisbatan past tovush bo'lib, bunda to'rtta barmoqni birgalikda zich juftlab, membrana (teri) o'rtasiga urib ijro etiladi. "Bak" ham membrane o'rtasiga, faqat barmoqlar orasini ochgan holda urib ijro qilinadi. Bizning zamonimizgacha doira usullarining bir qancha namunalari yaratilib, davrlar osha jilolanib kelmoqda. Usullar davrning ijtimoiy rivoji bilan birgalikda xalq

ma'naviyati, madaniyatiga xizmat qilgan. Taraqqiyot rivojini e'tiborga olgan holda turli usullar ijod etilib, ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilgan" [4, 66-b].

Buning natijasida o'ziga xos, rang-barang usullar yuzaga kelgan. Hozirgi kunda o'zbek musiqa ijrochiligida bir qancha doira usullari qo'llaniladi. Ularni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- "oddiy usullar: ijro jihatidan unchalik murakkab bo'lmagan, asosan, an'anaviy marosimlarda, qo'shiq va laparlarda qo'llaniladi;
- maqsadli usullar: ommani jalb etish, to'plash, diqqatni qaratish kabi muayyan ma'noga ega bo'lgan chaqiriq usullari;
- murakkab usullar: ya'ni xalq mumtoz musiqa ijodiyotida qo'llaniladigan usullar" [5, 31-b].

X–XVII asr musiqiy risolalarida ushbu qoidaga asoslangan doira usullarining ko'plab misollari keltirilgan. Asosan, undosh harflar yordamida uzun va qisqa bo'g'inlar ifodalanib, bo'g'inlarning birikmasi she'r o'lchovlari hamda doira usullarining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Manbalarda qayd etilishicha, dastlabki yaratilgan musiqiy usul "Zarbul-qadim" yoki "Qadimiy zarb" deb nomlangan. Ushbu usul inson yuragi urishidan ilhomlanib, oddiy "tan-tan" shaklida ifodalangan. Keyinchalik esa usullarning murakkabroq shakllari yuzaga kelgan. Masalan, "tana-tana", "tantan-tan", "tana-tana-tan" va hokazo. Bu usullar musiqa asarlari bilan birga yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik Sharq xalqlarida mustaqil doira usullari tarzida ajralib chiqqan" [4, 67-b].

Darhaqiqat musiqiy asar ijrosi paytida doirachi sahnadagi barcha ijrochilarning boshqaruvchisi hisoblanadi. Doirachining ijro etgan birgina usulidan kuyning tempi, ritmi ma'lum bo'ladi. Shu bois doirachiga katta mas'uliyat yuklanadi. Musiqiy asarning boshlanishidan yakuniga qadar doira ijrochisidan avvalo usulni bir maromda ushlash talab etiladi.

Tarixiy manbalarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, doira cholg'usi o'tmishda, xususan, zardushtiylik davrlarida ayollar orasida keng qo'llanilgan. Baxshi ayollar odamlarni davolashda, diniy marosimlarda doira cholg'usidan

foydalanganlar. Bunday xususiyatlar shamanlar faoliyatida ham kuzatilgan. Ular ham inson tanasidan yovuz ruhlarni chiqarish, kasallikni davolash, olovga va ajdodlar ruhiga sig'inish, qurbonliklar qilish, zikrga tushish kabi turli marosimlarida doira chalganlar. Doiraning yangrashi o'tkazilayotgan marosim ruhini kuchaytirishga, ekstaz (jazavaga tushish) holatiga yo'naltirishga xizmat qilgan. O'sha davrlardagi ayrim marosimlar bugungi kunda ham chekka vohalarda o'z kuchini saqlab qolgan. Doira ijrochiligi vujudga kelishi, uning rivoji jarayonida yurtimizning har bir hududida o'ziga hos mahalliy ijrochilik uslublari shakllandi. Mazkur uslublarda har bir vohaning o'ziga xos xususiyatlari, e'tiborga molik tomonlari hamon o'z mohiyatini saqlab kelmoqda. Bularga Buxoro – Samarqand, Xorazm, Farg'ona- Toshkent hududlariga xos ijrochilik uslublarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Musiqqa merosimizning avlodlardan-avlodlarga o'tib kelishi, har bir musiqiy namunalarning mazmun-mohiyatiga qarab turlanishi hamda zamonaga xos talqin qilib borilishi ham insoniyat kamoloti yo'lida olib borilgan amallarning bir ko'rinishi desak to'g'riroq bo'ladi. Zero, musiqiy merosga ijodkorona yondashish, ularni qadriyatgan negizida o'zlashtirish, zamon ruhiyati bilan uyg'unlashtirish va barkamol avlodning tafakkuriga mos talqiniga erishish bu mezonning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Chunki, musiqqa san'ati, o'zining sarhadlarini juda kengligi, imkoniyatlarini cheksizligi, rang-barang namunalarga boyligi, tarbiyaviy jihatlari, insoniyat kamolotiga xizmat qiluvchi xususiyatlarga ega ekanligi bilan xalqimiz ma'naviy kamolotida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Vatanimiz mustaqillikka erishgan davridan boshlab bu jarayonga alohida e'tibor bilan yondoshilganligining ham sababi shundadir. Davlatimizning olib borayotgan odilona siyosatining ma'naviy jabhalarida bu jarayon o'z ijobatini namoyon etib, kelajak avlodlarimiz uchun namuna bo'lib kelayotganligini e'tirof etish lozimdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Rahmatov N. Doira. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 13 b.
2. Rustamov I. Doira cholg'u ijrochiligida ijroviy usullarning ahamiyati // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2023. – №(4), Aprelio. – B. 75.
3. Rahimov Sh., Yusupov Sh. Cholg'u ijrochiligi. – Toshkent: Musiqa, 2011. – 58 b.
4. To'rayev Q. O'zbek musiqasida doira cholg'usining o'rni // *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya*. – Toshkent: 2023. – 67 b.
5. Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. – Toshkent: Yangi nashr, 2008. – 31 b.
6. Abdurahimov B., Do'smurodov B. Maqomlarni targ'ib qilishdagi yutuq va ba'zi bir muammolari//*Scientific progress*. – Toshkent. – 2021. – № 6. –B. 847–850.
7. Abdurahimov B. Xalq musiqasi merosidagi mumtoz asarlarning ashula va raqs ansambllari repertuari uchun ahamiyati // *Research Focus*. – Toshkent. – 2025. – № 6. Scceial Issue 3. – B.296–299.
8. Abdurahimov B. Maqomning yangi O'zbekiston san'at ta'limi tizimida o'qitishning zarurati//*Oriental Art and Culture*. – 2024. – № 5(1), – B. 304-307.